



## YAPONIYA

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tarix yo'nalishi 4-kurs talabasi*  
*Nuriddinov Muhriddin*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada biz Yaponiya davlati tarixi uning joylashuvi kelib chiqishi qonunlari va uning xalqi tomonidan asrlar davomida shakllanib kelgan madaniyati haqda suxbatlashamiz. Ushbu suxbat davomida siz juda qiziqarli ma'lumotlarga duch kelishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** Yaponiya, madaniyat, Yapon xalqi, Tarix, shaxarlari, siyosati, yuksalish

### Kirish

19-asr oxiri — 20-asr boshlarida Yaponiyaning hukmron doiralari agressiv tashqi siyosat tuta boshlab, 1894-yilda Koreyada qo'tarilgan dehqonlar qo'zgonini bostirish niqobi ostida u yerga qo'shin yubordi va Xitoy bilan bo'lgan urush (1894—95) natijasida Tayvan va Penxuledao orollarini, rusyapon urushi (1904—05) oqibatida esa Shimoliy Saxalinni egalladi. Yaponiya va Buyuk Britaniya o'rtasida 1902, 1905 va 1911-yillarda imzolangan shartnomalar asosida o'zaro hamkorlik harbiy-siyosiy ittifoq darajasiga qo'garildi va ikki tomon Koreya hamda Xitoyda o'z mavqelarini yanada mustahkamladi. 1910-yil avgustda Yaponiya Koreyani o'z mustamlakasiga aylantirdi. Yapon monopoliyalari Janubiy Manjuriyani, keyinroq Xitoyning boshqa rayonlarini o'z ta'sir doirasiga kiritdi. Birinchi jahon urushi boshlanishidan Yaponiya hukmron doiralari Uzoq Sharqdagi o'z mavqelarini yanada mustahkamlash va kengaytirish uchun foydalandilar. 1914-yil 23-avgustda Yaponiya Olmoniyaga qarshi urush ochdi va oktabrda Olmoniyaga qarashli Marshall, Mariana, Karolina orollarini, shuningdek, Xitoyning Shan'dun provinsiyasini u yerda Olmoniya ijaraga olgan hudud bilan birga bosib oldi. Yaponiyaning mustamlakachilik siyosati kuchayib 1918—22 yillarda Uzoq Sharqdagi Rossiyaga qarashli bir qancha o'lkalarni ishg'ol etib turdi. 1920-yildan Yaponiya iqtisodiyotida tushkunlik boshlanib, u 1925-yilgacha davom etdi. 1925-yil 20-yanvar dan Yaponiya bilan sobiq SSSR o'rtasida o'zaro munosabatlarning asosiy tamoyillari to'g'risida Pekin konvensiyasi imzolandi. 1926-yil 25-dekabrda Yaponiya taxtiga imperator Hirohito (1901—89) o'tirdi. 1929—33 yillarda bo'lgan jahon iqtisodiy inqirozi natijasida vujudga kelgan holatda Yaponiyada harbiy-fashistik diktatura o'rnatishga intiluvchi o'ta reaktion "yosh ofitserlar" guruhi



faollashdi. 1931-yil Yaponiya Manjuriyani bosib olishga kirishdi. 1933—36 yillarda Xitoyga qarshi agressiyani kuchaytirdi. 1936-yil 25-noyabrda Yaponiya fashistlar Germaniyasi bilan "Antikomintern pakti"ni imzoladi. 1937-yil iyulda Xitoyni bosib olish uchun urush boshladi va 1938-yil uning butun sharqiy qismini bosib oldi. Yaponiya qo'shinlari sho'ro armiyasi tomonidan Hasan ko'li yonida (1938) va XalxinGol jangi (1939)da tormor keltirilgach, Yaponiya hukumati Yevropa davlatlari va AQSHning Janubiy Sharqiy Osiyodagi mustamlakalariga hujum qilishga o'tdi. 1940-yil Hindixitoyning shimoliy qismini bosib oldi. Shu yil 27 sentabrda Olmoniya, Italiya va Yaponiya o'rtasida "Uchlar pakti" imzolandi. Ikkinchi jahon urushida Olmoniya va Italiya ittifoqchisi sifatida qatnashdi. 1941-yil 7-dekabrda Yaponiya AQSHning PyorlXarbordagi harbiy bazasiga hujum qilishi bilan Ikkinchi jahon urushiga kirdi. 1942-yil Yaponiya imperiyasi Buyuk Britaniya va Fransiyaning Janubiy Sharqiy Osiyodagi ko'plab mustamlakalarini egallab ulkan hududni o'z nazoratiga oldi. Ammo 1943-yildan egallagan hududlarini yo'qota boshladi. 1945-yil AQSH harbiyhavo kuchlari Yaponiyaning Hiroshima (6-avgust) va Nagasaki (9-avgust) shahrilariga atom bombasi tashladi. Sovet hukumati 1945-yil 9-avgustda Yaponiyaga qarshi Manjuriya strategik operatsiyasini boshladi. 1945-yil 2 sentabrda Yaponiya so'zsiz taslim bo'lganligi to'g'risidagi aktga imzo chekdi va uning hududini ittifoqchilar nomidan AQSH qo'shinlari okkupatsiya qildi. 1946—48 yillarda bo'lib o'tgan Tokio sud jarayonida asosiy yapon harbiy jinoyatchilari jazoga tortildi. Urushdan so'ng Yaponiyada tub siyosiy va ijtimoiyiqgisodiy islohotlar o'tkazilib, qurolli kuchlar va o'ng tashkilotlar tarqatib yuborildi, dvoryan yer egaligi tugatildi, avvalgi monopolistik konsernlar qayta tashkil etildi. 1947-yilgi konstitutsiyaga binoan mamlakat xalqaro mojarolarni qurol kuchi bilan hal qilishdan va shu maqsadda qurolli kuchlar tuzishdan voz kechdi. 1951-yil 8 sentabrda Yaponiya bilan AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va boshqalar davlatlar o'rtasida San Fransisko sulh shartnomasi imzolanib, mamlakat suvereniteti tiklandi hamda Yaponiya bosib olgan barcha mustamlakalaridan voz kechdi. Shu yili Yaponiya bilan AQSH o'rtasida imzolangan xavfsizlikni kafolatlash to'g'risidagi shartnomaga ko'ra, Yaponiyada AQSH harbiy bazalari joylashtirildi. 1956-yil 19 oktabrda SSSR bilan Yaponiya o'rtasida urush holatiga barham berish, diplomatiya munosabatlarini tiklash to'g'risida qo'shma bayonot imzolandi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Grigoreva T. P. Ponimanie iskusstva v Yaponii // Grigoreva T. P. Dvijenie krasoti: Razmishleniya o yaponskoy kulture. M.: Vost. lit., 2005, s. 180-192.



2. Xiroaki Sato. Samurai (Wayback Machine saytida 2012-11-20 sanasida arxivlangan) // Xiroaki Sato. Samurai: Istoriya i legendi. SPb. 1999, s.10-26
3. А. Мещеряков. Istoriya sake (Wayback Machine saytida 2018-09-11 sanasida arxivlangan) // А. N. Мещеряков Книга японских символов. М., 2003, s.419-431
4. Donald Richi. Potseluy v Yaponii (Wayback Machine saytida 2008-02-25 sanasida arxivlangan) // Mir po-yaponski. SPb., 2000, s. 79-83
5. Rolan Bart. Xokku (Wayback Machine saytida 2008-03-09 sanasida arxivlangan) // Bart R. Imperiya znakov. М.,2004, s. 87-109